

QO'G'IRCHOQ TEATRIDA AKTYORLIK SAN'ATINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

MA'MURA UMARXODJAYEVA

Mustaqil tadqiqotchi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Toshkent, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-16>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'g'irchoq teatrida aktyorlik san'atining shakllanish bosqichlari mavzusi tahlil va muhokama qilingan

Kalit so'zlar: Qo'g'irchoq, teatr, aktyor, san'at.

KIRISH

Taniqli teatr arbobi K.S.Stanislavskiy: "Bolalar uchun qo'yiladigan spektakllar kattalarnikiga qaraganda kuchliroq va yaxshiroq bo'lishi kerak", – deganida qo'g'irchoq teatri ijodkorlaridan o'z ishiga katta mas'uliyat va jonkuyarlik bilan yondashishni nazarda tutgan, bizningcha.

Darhaqiqat, so'z ertangi kunning egalari xususida ketar ekan, ahamiyatsizdek ko'rinadigan har qanday masalaga jiddiy e'tibor qaratish, mavjud muammolarni nazardan chetda qoldirmaslik va yosh avlodning ma'naviy-ruhiy dunyosini turli yot va buzg'unchi g'oyalardan asrab avaylash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda.

Bunda qo'g'irchoq teatrlarining muhim o'rin tutishi hech kimga sir emas. Professionalikka intilish har bir soha kabi qo'g'irchoq teatrlarining ham muhim talabiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy qo'g'irchoq teatrlarining imkoniyatlari, maqsad va vazifalari kengayotgan bir paytda ijodkorlarning faol ijtimoiy pozitsiyada bo'lishi, bor mahoratini ishga solishi va o'z ustida tinmay mehnat qilib, yangi izlanishlar tomon yo'l ochishi talab qilinadi.

ASOSIY QISM

Jahon qo'g'irchoq teatrlari bu borada bizdan anchayin ilgari ketdi. Ular uchun qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi, ijrochiligi, rejissurasi borasida hech qanday to'siq yo'q. Boisi dramaturgik material tanlash borasida aksariyat teatrlar keng auditoriyadagi tomoshabinlar uchun mo'ljallangan jiddiy mavzu, yirik hajmdagi asarlarga qo'rqmay murojaat qilmoqda. Ayniqsa, jahonga mashhur "Zalzburg marionetkalari" teatrida katta yoshdagi auditoriyaga mo'ljallangan jiddiy mavzu va ulkan g'oyaga ega asarlarning sahnalashtirilishi o'tgan asrdayoq yo'lga qo'yilgan. Motsartning "Bastiyen va Bastiyenna" operasi, "Sehrli fleyta", "Don Juan", "Tundagi kichik serenada" kabi sahna asarlari shular jumlasidandir. Ushbu teatrlar pyesa kutib o'tirgan emas. Bizda ham dramaturglar taqchil davrda ham katta hajmdagi nasriy asarlarni inssenirotka qilishgan. Tarixda bu kabi holatlar ko'p bo'lgan. Nega Navoiy asarlari katta yoshdagi tomoshabinlar uchun sahnalashtirilmaydi? Jahon adabiyotida ham katta-yu kichikka birday ma'qul keladigan asarlar ko'plab topiladi. Balki endi jiddiyroq mavzudagi, mulohazaga

chorlaydigan asarlarni sahnaga qo'yish kerakdir. Vaholanki biz hali o'smir yoshdagi bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini ham qondira olmayotganimiz yo'q. Boisi yildan yilga ongi, tafakkuri o'sib borayotgan bolalarning bugungi ehtiyojlari, talablari juda yuqori. Kelajakka, o'ziga ishonchi baland, maqsadlari aniq.

Bugun kunda qo'g'irchoq teatri repertuaridan o'rin olgan asarlarning deyarli hammasi bog'cha yoshidagi bolajonlar auditoriyasiningina qamrab olgan xolos. O'smir yoshdagi va undan katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ularni qiziqitira oladigan spektakllar barmoq bilan sanarli.

Bugun nafaqat Respublika, balki barcha viloyat qo'g'irchoq teatrlarida quyidagi muammo mavjud. Qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi, rejissurasi va aktyorligi. Mavjud muammolarning bari bir-biri bilan bog'liq. Har uchala masalaning yechimi keyingisining yechimi tomon yo'l ochadi. Kuchli asar, kuchli rejissura kuchli aktyorni shakllantiradi. Yana bir tomondan, ijrochilik borasida qo'g'irchoq teatri oldida qator muammolar ko'ndalang turibdi. Bugun Respublika qo'g'irchoq teatri faqatgina simli, planshetli va qo'lqopli qo'g'irchoq turlari bilanlangina cheklanib qolgan. Vaholanki so'nggi yillarda qo'g'irchoq teatri turlarining imkoniyatlari aqlbovar qilmas darajada yuksalib ketdi. Texnik jihatdan zamonaviy qo'g'irchoq teatrlari ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, tomoshabin hayratiga sazovor bo'lmoqda. Qo'g'irchoq teatrlarining biz hali o'rganishga ulgurmagani soya, marionetka va x.k. turlari bugun jahon qo'g'irchoq teatri maydonida ko'p asrlik tarixga aylandi.

Nazarimizda, qo'g'irchoq teatrlari ham zamonga qarab odimlashi, yangi qo'g'irchoq teatri turlarini o'rganishi zarur. Jahon teatrlariga yetish yo zarurat yuzasidan emas, balki bizning tomoshabinlar ham ana shunday yangiliklardan boxabar bo'lishga, qo'g'irchoq teatrlarining boshqa turlari ishtirokidagi san'at asarlaridan bahramand bo'lishga loyiq, deya olg'a borishi kerak.

Ma'lumki, qo'g'irchoq teatrida birinchi galdagi qahramon qo'g'irchoq ekanini e'tiborga olsak, unda birinchi navbatda qo'g'irchoqni sahnada jonlantirish san'atini puxta egallash muhim talab hisoblanadi. Avvalo qo'g'irchoqni boshqarish san'atini puxta egallash zarur. Faqatgina simli, planshetli, qo'lqopli qo'g'irchoq turlari bilan chegaralanmasdan, marionetka, soya, suv ostidagi qo'g'irchoq va boshqa yangi zamonaviy qo'g'irchoq teatri turlarining sir-asrorlarini puxta o'zlashtirish zarur. YA'ni shaklda yangiliklar tomon yo'l ochish kerak. Qo'g'irchoq teatri ijrochiligi borasida ekperimentlardan cho'chimaslik ham muhimdir. Buning uchun esa O'zbekiston davlat san'at

va madaniyat instituti "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasida qo'g'irchoq teatrining boshqa – yangi turlarini talabalarga o'rgatish jarayonini yo'lga qo'yish lozim. Albatta bu jarayon tez va oson kechmaydi. Boisi biz tilga olayotgan zamonaviy qo'g'irchoq teatri turlari bo'yicha bizda mutaxassislar yo'q.

Mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasini esa xalqaro hamkorlik aloqalari asosida yo'lga qo'yish mumkin. Institutimizning xorijiy mamlakatlar bilan imzolangan 10 ta xalqaro shartnomasi mavjud. Bular: Rossiya, Belorussiya, Koreya, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa davlatlardir. Shartnomada belgilangan kelishuvlar ichida hamkorlik aloqalari, mutaxassis kadrlar malakasini oshirish kabi bandlar o'rin olgan. Mana shu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, qo'g'irchoq teatri turlari bo'yicha mahorat darslari, malakali kadrlar tayyorlash masalalarini hal qilish mumkin. Agar bu tadbir amalga ohsa, zamonaviy qo'g'irchoq teatri turlarini o'rganib qaytgan pedagog o'z bilimi va tajribasini talabalarga o'rgatadi. Faqat bunda yana bir muammo bor. Quruq aktyor ijodi bilan teatrdan ish yurmaydi. YA'ni zamonaviy qo'g'irchoq teatri turlarini tushungan aktyorning boshida buni tushunadigan rejissyor hamda ssenograf ham bo'lishi kerak. Kelib chiqadiki, soha sirlarini o'zlashtirish uchun bir jamoa, aniqrog'i rejissyor, aktyor va ssenograf birga yuborilishi kerak. Uchta ijodkorning pulsi birgama-birga, bir tempda ursagina mazkur tadbir o'z natijasini beradi.

Aytib o'tilgan yechim uchta og'riqli muammo uchun yetarli emas, albatta.

Mazkur muammo yuzasidan qo'g'irchoq teatri aktyorligining o'qitilish jarayonida ham e'tiborga olinishi lozim bo'lgan ayrim takliflarni keltirib o'tish joiz. Menimcha, hozirgi tezkor, talabchan zamonning yetakchi mutaxassisiga aylanish uchun, ya'ni professional qo'g'irchoq teatri aktyori bo'lib shakllanish uchun serqirra faoliyatga urg'u berish talab qilinadi. Bugungi qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'limi talabalarining dars jadvaliga plastika, ritmiga, soz chalish fanlarini qo'shish kerak.

An'anaviy qo'g'irchoq teatri aktyorlari oldin bularning baridan yaxshigina xabardor bo'lgan. Bu esa qo'g'irchoq ruhiyatiga kirish, aktyorning serqirralik darajasini oshirishga turtki bergan.

Bugungi kunda nafaqat ijrochilikda, balki aktyorlarning sahna nutqida ham kamchiliklar talaygina.

Bilamizki, ovoz, nutq apparati ayniqsa qo'g'irchoq teatrida xarakter yaratishning muhim qurolidir. Oxirgi qatorda o'tirgan tomoshabinga qo'g'irchoqning yuz ifodasi aniq ko'rinmasligi mumkin. Ammo aktyorning ovozi qo'g'irchoqning holatini berib turadi. Qolaversa, ovoz harakatning maromiga yetmagan nuqtalarini to'ldirishi, mujmal harakatlarga aniqlik kiritishi mumkin. Shu tufayli bu borada jiddiyroq yondashish, aktyor talaffuzi va ovozigga yetarlicha e'tibor qaratish zarur.

Qo'g'irchoq teatri aktyori uchun yana bir soha muhim hisoblanadi. Bu – plastika. Har qanday qo'g'irchoq turini o'ynatish uchun aktyorning qo'l, barmoq va gavda harakatlari egiluvchan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Bu qo'g'irchoq ijrochiligida birlamchi o'rinda turadi. Barmoqlarning egiluvchanligi, sezuvchanligini oshirish, sahna ortida ishlayotganda partnyorga xalaqit bermaslik va qo'g'irchoq ishlatish borasidagi ko'nikmalar aynan plastika darsi orqali o'zlashtiriladi.

Shuningdek, ritmika fani ham musiqiy asarlarni eshitishda, qo'g'irchoq harakatlarini musiqaga moslashda va qo'g'irchoqni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Yana bir fan borki, uning zarurati so'nggi yillarda anchayin sezilib qoldi. Qo'g'irchoq teatri aktyori jonli planda ham rol ijro etayotganda albatta biror soz turini chalishni bilishi kerak, nazarimizda. Har bir aktyorning sahnadagi yorqin chiqishida bu muhimdir. Bu fanlarning bo'lajak qo'g'irchoq teatri aktyorlarining dars jadvaliga kiritilishi ijrochilikdagi mavjud muammolarni bartaraf etishda yordam beradi.

XULOSA

Bugungi axborot va texnika asrida hozirjavob, zamon bilan hamnafas aktyorlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega. Boisi global asrimizda bolalarni biror narsaga qiziqtirish oson ish emas. Bolalar internet oqimida kuniga minglab yangilik, ma'lumotlarni qabul qiladi. Qolaversa, qo'g'irchoq teatri o'rini bosadigan video o'yinlar, animatsion filmlar va turli ko'ngilochar dasturlar hamisha topiladi. Agar bugun qo'g'irchoq teatri va uning asosiy figurasi bo'lgan aktyorning mahorati, dunyoqarashi zamonga mos, ildam va dadil bo'lmasa, qo'g'irchoq teatri o'z oldidagi vazifasini to'liq ado eta olmagan bo'ladi. Agar qo'g'irchoq teatri ijrochiligida avvalgidek xalqqa yaqin Polvon Kachal, Bichaxon kabi milliy qahramon obrazlari zamonga mos, yoqimtoy qiyofada aks etmas ekan, jajji tomoshabinlar qalbidagi havas qilinadigan qahramonlar o'rini boshqa g'arbona qahramonlar egallay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi – T.: Talqin, 2006.
2. Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar.. – T.: Fan, 1993.
3. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: O'qituvchi, 1981.
4. Кадыров М. Узбекский традиционный театр кукол. – Т.: Изд. им. Г.Гуляма, 1979.
5. Станиславский К.С. Этика – М.: Искусство государственное издательство, 1981.